

## PUDRAT SHARTNOMASI № 6

21 Iyul 2022 yil

Paxtaobod tumani

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «2020 Mega stroy» MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **M.Komiljonov** ikkinchi tomondan eshi va deraza romlarini almashtirish ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

### 1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning Paxtaobod tuman maktabgacha ta'limi bo'limi tasarrufidagi 9-maktabgacha ta'lim binosini defektniy akt va smeta xujjatlariga hamda 16.07.2022 yil kungi № 22110012120176 lotga asosan eshi va deraza romlarini almashtirish ishlarini bajarib beradi.

### 2. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati **108 998 646** (Bir yuz sakkiz million toqqiz yuz toqson sakkiz ming olti yuz qiriq olti ming) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 20 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30 foizini **32 699 593.80** (Ottiz ikki million olti yuz toqson toqqiz ming besh yuz toqson uch) so'm 80 tiyinni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **76 299 052.20** (Yetmish olti million ikki yuz toqson toqqiz ming ellik ikki) so'm 20 tiyinni «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi ( F-3 ) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### 3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

3.1. «Pudratchi»ning majburiyatlari

Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan obektni «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjatiga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni

bajarishga kirishadi. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

### 3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to'lanishi va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda xisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

### 3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash;

### 3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish;

## 4. Tomonlarning javobgarligi.

### O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi subyektlarni faoliyatni shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Pudratchi» ob'ektni o'z vaqtida topirishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to'lovlar to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 foizi miqdorida «Pudratchi» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarimaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 foiz miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

## 5. Fors major holatlar.



5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

## 6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisod sudi orqali hal etiladi.

## 7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar muhri bilan imzolanib, xududiy G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

## 8. Tomonlarning rekvizitlari

«Pudratchi»

«Buyurtmachi»

Nomi: «2020 MEGA STROY» M.Ch.J

Manzili: Andijon shahar zardob kochasi 9

Bank nomi: ATB In'finbank Andijon filiali

X/r: 20208000605194476001

MFO: 01114

STIR (INN): 307 222 311

XXTK (OKONX):

Raxbar: M.Komiljonov

M.O.



Nomi: Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi

Manzili: Paxtaobod tuman A.Temur ko'chasi

SHXR: 100022860032327091100251029

STIR (INN): 305 157 124

XXTK (OKONX): 92400

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi

X/R: 2340 2000 3001 0000 1010

INN: 201122919 MFO: 00014

Banki: Markaziy bank XQQM

Raxbar: S. Abdullayeva

imzo



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**№ JU14352484**

2022-yil 21-iyul.

Paxtaobod tumani

1. Loyihaning turi- Shartnoma.
2. Loyihaning nomi- "Pudrat shartnomasi"

Shartnoma tuzuvchilar bir tomondan «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman **MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI** uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «2020 Mega stroy» MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **M.Komiljonov** ikkinchi tomondan eshik va deraza romlarini almashtirish ishlariga doir pudrat shartnomasi tuzilgan.

**Shartnoma predmeti:**

«Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning Paxtaobod tuman maktabgacha ta'limi bo'limi tasarrufidagi **9-maktabgacha ta'lim binosini** defektniy akt va smeta xujjatlariga hamda 16.07.2022 yil kungi **№22110012120176** lotga asosan eshik va deraza romlarini almashtirish ishlarini bajarib beradi.

Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati **108 998 646** (Bir yuz sakkiz million toqqiz yuz toqson sakkiz ming olti yuz qiriq olti ming) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 20 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 29.08.1998 yildagi (670-I-son). 16.07.2022-yil kungi **№22110012120176** lot raqami, harajatlar smetasi, defektniy akt, ekspertiza xulosasi, yig'ilish bayoni.

**Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**

Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan 21.07.2022

**Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.**

Paxtaobod tuman adliya bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish  
markaz bosh yuriskonsulti:



B.Sattarov